



“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv”
jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga
oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy
tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*
ISHQUVATOV Valiqlul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*
KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*
NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*
SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*
JABBAROV Ulug'bek Abduraxmanovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Мусурманова Айниша Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*
Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*
Ишкuvatov Валикул Турдыевич – *доктор исторических наук, профессор.*
Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*
Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*
Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*
Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*
Сайдивалиева Хуршида Ходжаикбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*
Атамуратов Расулжон Кадирджонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Содикова Шохиди Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*
Жаббаров Улугбек Абдурахманович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Ходжиев Расулбек Бойназар оглы – *доктор философии (PhD) по философским наукам.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*
Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*
Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*
Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*
Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*
Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*
Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*
Atamuratov Rasuldjon Kadirdjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*
Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Khodjiev Rasulbek Boynazar ogly – *Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.*

SOTSILOGIYA

Usmonova R.M. O'zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsilogik tahlili	4
---	---

JAMIYAT VA OILA

Axunov M.M. Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	17
Yulchiyeva D. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati	26
Davlatova H.U. Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko'lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish.....	36

IJTIMOY PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Oilada ta'lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlarini	46
Ummatkulova N. Oila va maktab hamkorligida o'smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....	53
Qahhorova F.Y. Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari	60
Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....	67
Egamberdiyeva G.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	79

IJTIMOY PSIXOLOGIYA

Arzikulov D.N. Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari.....	89
Shamsiyev O'.B. Bolalar chapaqayligi xususida	94
Абдуганиева Д.А. Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности	100
Xudoyorova M.X. Ta'lim psixologiyasining talabalar o'zlashtirishidagi ahamiyati	109
Ashurova A.N. O'smirlik davrida o'z-o'zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari	119
Nazarova M.Y. Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo'ravonlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....	127

Axunov Muqimjon Muhammadaminovich,
Andijon davlat chet tillari instituti
“Ingliz tili nazariy aspektlari” kafedrasi dotsenti



AHOLI MIGRATSIYASI GENEZISI VA UNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Shu bilan birga, “aholi migratsiyasi” tushunchasiga berilgan ta’riflar ko’rib chiqilib, ulardan eng ko’p foydalanilgani V.A.Ionsev tomonidan nashr qilingan ilmiy tadqiqotlarda o’z aksini topgani anilqandi. Birgina Rossiyadagi maxsus nashrlar kontent-tahlili asosida mazkur atamaga 36 turli ta’riflar keltirilgan. V.A.Ionsev kontent-tahlillarini umumlashtirgan holda, mazkur atama ta’riflangan xorijiy va mahaliy adabiyotlarni turkumlab chiqilgan.

Аннотация: В данной статье описывается генезис миграции населения и ее теоретико-методологические основы. При этом были рассмотрены определения понятия «миграция населения», наиболее употребительные из которых нашли отражение в научных исследованиях, опубликованных В.А.Ионцевым. На основе контент-анализа специальных изданий только в России он перечислил 36 различных определений этого термина. В.А.Ионцев, подводя итоги своего контент-анализа, классифицирует зарубежную и отечественную литературу, определяемую этим термином.

Annotation. The article examines the genesis of population migration and its theoretical and methodological foundations. At the same time, the definitions given to the concept of «population migration» were considered, the most used of which were reflected in scientific researches published by V.A.Iontsev. Based on the content analysis of specialized publications in Russia alone, 36 different definitions of this term were found. V.A. Iontsev, summarizing the content analysis, categorizes foreign and domestic literature in which this term is defined.

Tayanch soʻzlar: migratsiyasi, genezis, jamiyat, aholi, ijtimoiy-demografik tarkib, yosh tuzilmasi.

Ключевые слова: миграция, генезис, общество, население, социально-демографический состав, возрастная структура.

Keywords: migration, genesis, society, population, socio-demographic composition, age structure.

*Migratsiya
jarayonlari ilm-
fanda aholi
populyatsiyasi,
uning miqdori,
jins-yosh
tuzilmasi nuqtayi
nazaridan avlodlar
davomiyligini
ta'minlash va
saqlab qolish
maqsadida
o'rganiladi.
Ushbu sohada
sodir bo'layotgan
jarayonlar
har qanday
mamlakatning
demografik
barqarorligiga
to'g'ridan-to'g'ri
ta'sir ko'rsatadi.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatlarda sodir bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar aholining turli qatlamlari orasida aksariyat vaziyatlarda moddiy manfaatdorlik maqsadida bir hududdan ikkinchisiga ko'chib o'tish holatlarini kuchaytirmoqda. Bugungi kunda aholi ko'chishi ijtimoiy hodisa va jarayon sifatida ilm-fanda keng o'rganilmoqda. Ayniqsa, aholi populyatsiyasi, ijtimoiy-demografik tarkibi, jinsiy-yosh tuzilmasidagi o'zgarishlar monitoringi, avlodlar davomiyligini ta'minlash muammolari migratsion jarayonlar bilan chambarchas bog'liqlikda o'rganiladi. Zero, XXI asrda migratsiya global ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hamda demografik muvozanatni izdan chiqarishga qodir yirik omilga aylandi.

Maqsad va uni asoslash. Aholi migratsiyasi (lot. *Migratio* – ko'chish) kishilarning bir mintaqa (davlat, mamlakat)dan ikkinchisiga ko'chib o'tishi bo'lib, O.D.Vorobyovanning yozishicha – bu “aholining yashash joyini doimiy yoki vatinchalik o'zgartirishi bo'lib, har qanday hududiy ko'chib o'tish ijobiy yoki salbiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi”¹.

Migratsiya jarayonlari ilm-fanda aholi populyatsiyasi, uning miqdori, jins-yosh tuzilmasi nuqtayi nazaridan avlodlar davomiyligini ta'minlash va saqlab qolish maqsadida o'rganiladi. Ushbu sohada sodir bo'layotgan jarayonlar har qanday mamlakatning demografik barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy yondashuvlarga muvofiq migratsiya universal ta'riflanadi. Ya'ni migratsiya – bu mamlakatning mehnatga layoqatli aholisi sonining muhim regulatori. Ushbu jarayon mehnat bozoridagi sog'lom raqobatni rag'batlantiradi. Migratsiyaning aksariyat turlari iqtisodiy zarurat bilan bog'liq bo'lib, u yoki bu darajada mehnat bozori talablaridan kelib chiqib sodir bo'ladi.

Huquqshunoslik nuqtayi-nazaridan esa migrantlarning huquqiy maqomining o'rnatilishi, migrantlarning huquq va manfaatlarining kafolatlanishi, migrantlar va ular bilan ishlovchi sub'yektlarning munosabatlar tizimi tartiblash dolzarb masalalar sanaladi.

¹ Воробьева О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики. Аналитический сборник. 2003. – № 9 (202). – С. 32.

Psixologiyada aholining muqim yashash joyidan boshqa hududga ko'chib o'tishi motivatsiyasi alohida o'rganiladi. Ushbu fanda migratsiya shaxsning qator ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish vositasi hamda kishining o'ziga bo'lgan ishonchini sinash usuli sifatida ta'riflanadi.

“Aholi migratsiyasi” tushunchasiga berilgan ta'riflar ko'p sonli bo'lib, V.A.Ionsev birgina Rossiyadagi maxsus nashrlarni kontent-tahlili asosida ushbu atamaga 36 turli ta'riflarni sanagan. V.A.Ionsev kontent-tahlillarini umumlashtirgan holda, mazkur atama ta'riflangan xorijiy va mahaliy adabiyotlarni turkumlab chiqadi. Uning xulosalariga muvofiq migratsion jarayonlarni o'rganishda 17 turli ilmiy yondashuvlar farqlanadi. Ushbu yondashuvlar kamida 45 ta ilmiy yo'nalish, nazariya va konsepsiyalarni birlashtiradi. Xususan, iqtisodiy 5 ta, sotsiologik nazariyalar 5 ta, sof migratsion 4 ta, demografik 3 ta, tarixiy 2 ta tipologik, siyosiy va hokazo yondashuvlardan iborat².

“Aholi migratsiyasi” tushunchasini ilk bor ingliz olimi E.G. Ravenshteyn 1885-yilda chuqur ilmiy izlanishlar asosida ta'riflaydi. Olim Buyuk Britaniya va Shimoliy Amerikadagi migratsion jarayonlarni tahlil qiladi. Ravenshte o'z tadqiqoti asosida migratsiyaning o'n bitta qonuniyatiga aniqlik kiritadi. Ular ichida muhimlari quyidagilardan iborat:

- aksariyat migratsiya qisqa masofalarda sodir bo'ladi;
- hududiy markazlar nechog'lik jazibador bo'lsa, ular shunchalik migratsiyaga turtki beradi;
- har bir migratsion oqimga qarshi kontroqim ham sodir bo'ladi;
- yirik shaharlarning o'sishida migratsion oqimlarning ta'siri tabiiy jarayonlarga nisbatan katta bo'ladi;
- migratsiya sanoatlashish va savdo-sotiq ko'lamining oshishi, ayniqsa, tarnsportning rivojlanishi bilan kengayib boradi;
- migratsiyaning iqtisodiy omillari belgilovchi sanaladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, migratsiyaning tarixi insoniyat paydo bo'lgan davrlarga borib taqaladi. Zero, dastlab Afrika qit'asida paydo bo'lgan insoniyat vaqt o'tishi bilan aynan migratsiya bois, butun dunyoga tarqalib ketdi. XVI–XIX asrlarda Yevropa aholisining Amerikaga ommaviy ko'chib o'tishi sodir bo'ldi. Bu jarayon bir muncha keyinroq Janubiy Afrika va Avstraliyaga ko'chdi. O'tgan asrning 50-yillarida esa vaziyat o'zgarib rivojlanayotgan davlatlar aholisining rivojlangan davlatlarga ommaviy ko'chib o'tishi boshlandi.

“Aholi migratsiyasi” tushunchasini ilk bor ingliz olimi E.G. Ravenshteyn 1885-yilda chuqur ilmiy izlanishlar asosida ta'riflaydi. Olim Buyuk Britaniya va Shimoliy Amerikadagi migratsion jarayonlarni tahlil qiladi.

² Миграция населения. Выпуск 1. Теория и практика исследования. Приложение к журналу «Миграция в России». – Москва, 2001. – С. 18.

Hozirgi kunda ilm-fanda migratsion jarayonlari ko‘lamini baholashda gravitatsiyali (tortishuv kuchi) model qo‘llanilmoqda. Migratsiyaning gravitatsiyali modeli fizikada Nyutonning tortishuv kuchi nazariyasiga qiyoslanib, migratsiyaning ijtimoiy jarayon sifatida mantiqan xuddi shunday talqin etadi.

A.V. Yurin Buyuk geografik kashfiyotlar davridan to bizning kunimizgacha sodir bo‘lgan eng yirik migratsion jarayonlarni uch bosqichga bo‘lib o‘rganadi. Unga muvofiq:

1-bosqich: Buyuk geografik kashfiyotlardan – XX asrning o‘rtalarigacha davom etgan. Bu bosqichda migratsiyaning asosiy oqimi Yevropaga yo‘naltirildi.

2-bosqich: 1950-yillar oxiri – 1990-yillarga qadar davom etdi. bunda asosiy oqim rivojlanayotgan davlatlardan rivojlangan davlatlar tomon yo‘naltirildi. Natijada, tartibsiz holda kechgan bu migratsiyada xorijiy ishchi kuchining past daromadli va nufuzi past faoliyat sohalariga jalb qilishini sodir bo‘ldi.

3-bosqich: 1990-yillarning oxiridan bizning kunimizga qadar davom etib, unga muvofiq rivojlangan davlatlar tomonidan migratsiya ko‘lamini tartiblashi va cheklash siyosati yuritilmoqda. Tartibsiz kechuvchi va past daromadli ishlarga malakasiz ishchilarni jalb qilish tendensiyasi o‘z o‘rinini yuqori malakali mutaxassislarni nufuzli lavozimlarga jalb qilishga bo‘shatib bera boshladi³.

Hozirgi kunda ilm-fanda migratsion jarayonlari ko‘lamini baholashda gravitatsiyali (tortishuv kuchi) model qo‘llanilmoqda. Migratsiyaning gravitatsiyali modeli fizikada Nyutonning tortishuv kuchi nazariyasiga qiyoslanib, migratsiyaning ijtimoiy jarayon sifatida mantiqan xuddi shunday talqin etadi. Unga muvofiq, migratsion jarayoning boshlanishi. Uni o‘shib, kengayib borishida ikki o‘lcham turtki bo‘ladi. Bular barchani o‘ziga jalb etayotgan, iqtisodiy nuqtayi nazardan jozibador bo‘lgan “mintaqa” va “ahamiyatlilik” tushunchalaridir. Demak, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan migrant hayotida tub burilish yasashga qodir ahamiyat kasb etishi lozim. Fikrimizcha, xuddi shunday qonuniya natijasida “qor uyumi” holati kuzatilib “jozibador mintaqa”ga ko‘chib boruvchilar soni yo‘l-yo‘lakay oshib boraveradi.

Sotsiologik nuqtayi nazardan migrantlarning yangicha ijtimoiy muhitga moslashish muammolari ilmiy tadqiqotlarning diqqat marakazida turadi. E’tiborlisi, sotsiologiya bu borada integrativ fan rolini o‘tab, Migratsiya sotsiologiyasini yaratilishiga turki berdi.

Migratsiyaning alohida jihatlari strukturali funksionalizm maktabi vakillari E.Dyurkgeym, T.Parsons, R.Mertonlar tomonidan o‘rganildi. Sotsiologiyaning klassik vakillari sanalgan ushbu olimlar aholi migratsiyasi

³ Трудовая миграция. Illo.org.

uzoq muddatli ijtimoiy transformatsiyalarni shakllantiruvchi jarayon ekanligida yakdil fikrga keldilar. Shu sababli, migratsiya dolzarb ahamiyatli sotsial funksiyalarni bajarishi yoki jamiyatda disfunktsiyalarga olib kelish ehtimoli baland ekanligi ko'rsatildi.

T.Parsons jamiyatning tizimli-funksional xususiyatlaridan kelib chiqib migratsiyaga turtki beruvchi sotsial omillarni o'rganishda integrativ yondashuv qo'lladi. Uningcha, jamiyat hayoti ijtimoiy, shaxsiy va madaniy tizimlar kesishmasida kechadi. Aholi migratsiyasi ushbu uch o'ldamli ijtimoiy makonda uzoq muddatli sotsial transformatsiyalarni shakllantiradi⁴¹. E.Dyurkgeym nazaricha, bunday sotsial transformatsiyalar bir tomondan jamiyatda ijtimoiy ahamiyatli funksiyalarni bajarsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy muvozanatni izdan chiqaruvchi disfunktsional holatlarni shakllantiradi⁵². Xuddi shunday disfunktsional vaziyatlar R.Merton fikricha, migratsiyaning ochiq yoki latent sotsial funksiyalari bois shakllanishi mumkin⁶³.

Sotsiologiyaning Chikago maktabida shakllangan bixevorial metodologiya doirasida aholi ko'chishi jarayonlari dinamik hodisa sifatida talqin qilindi. Xususan, migratsiyaning kechish tendensiyalari va ushbu hodisaning jamiyatda institutsionallashuv shartlari U.Tomas va F.Znanetskiy ishlarida o'z aksini topdi. Taniqlik sotsiologlar sanalgan ushbu olimlarning "Polyak dehqoni Yevropa va Amerikada" asari mohiyatan migratsiya borasidagi ilk empirik sotsiologik ishlardan biri bo'ldi⁷. Ushbu sotsiologik tadqiqotda aholining ijtimoiy makonda joy almashtirish jarayoni bir tomondan jamiyatda sodir bo'layotgan sotsial o'zgarishlarning oqibati sifatida o'rganilsa, ikkinchi tomondan, migratsiyaga xos ijtimoiy oqibatlar diqqat markazida bo'ldi. M.S. Blinova ko'rsatganidek: "U.Tomas va F.Znanetskiylarning sifatli tadqiqot metodlari asosida migratsiyaning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilgan ilk sotsiologlardan bo'ldi"⁸. O'z davrida ushbu asar yordamida yangi ko'chib kelgan hududda turli sotsial xarakterga ega kishilar

***Sotsiologiyaning
Chikago maktabida
shakllangan
bixevorial
metodologiya
doirasida
aholi ko'chishi
jarayonlari
dinamik hodisa
sifatida talqin
qilindi. Xususan,
migratsiyaning
kechish
tendensiyalari va
ushbu hodisaning
jamiyatda
institutsionallashuv
shartlari U.Tomas
va F.Znanetskiy
ishlarida o'z aksini
topdi.***

⁴ Парсонс Т. Система современных обществ. /Пер, с англ. Л.А. Седова и А.Д. Ковалева. Под ред. М.С. Ковалевой. – Москва: Аспект Пресс, 1998. – С. 21.

⁵ Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии / Пер. с фр. и послесловие А.Б. Гофмана. – Москва: Наука, 1990. – С. 58.

⁶ Мертон Р. Социальная теория и социальная структура. – Москва: Хранитель, 2006.

⁷ Томас У., Знанецкий Ф. Польский крестьянин в Европе и Америке. // Thomas W., Znaniecki F. The Polish peasant in Europe and America. N.Y., 1958.

⁸ Блинова М.С. Миграция населения: подход социологов Чикагской школы. // Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология. 2011. №4. – 173 б.

Bu davrda asosiy e'tibor sobiq ittifoq miqyosidagi ichki ko'chishlarga qaratiladi. Ma'furaviy tus olgan ushbu ilmiy tadqiqotlarda mehnat migratsiyasi sobiq ittifoqning o'zlashtirilmagan hududlarini obod qilish masalariga qaratiladi. Bunda ittifoq tarkibidagi respublikalar aholisi baynalmilallik g'oyalari bilan sug'orilib, Sibir va Uzoq Sharqqa, O'zbekistonda esa Katta Farg'ona kanalini qazish, Mirzacho'l hududlarini o'zlashtirish maqsadida ommaviy tus olgan ichki mehnat migratsiyalari shakllantirildi.

orasida o'z o'rniga ega bo'lish va ijtimoiy tizimga moslashib ketishidagi ichki mexanizmlarni modellashtirish xususiyatlariga aniqlik kiritildi.

Chikago maktabining taniqli vakillaridan biri R.Park migratsiyani insonning sotsial mobillikka moyilligining oqibati sifatida o'rgandi⁹². R.Park, E.Berjess va R. Makkenzilarning "Shahar" asarida migratsiya oilalar, individ va sotsial institutlarning ijtimoiy makondagi mobilligining indikatori va uni jonlantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ldi¹⁰³. Mualliflarning aniqlashicha, sanoatlashuv va urbanizatsiya ikki qudratli to'liq sifatida sotsial mobillikka turtki berdi va bu o'z o'rnida migratsiyaning intensivligini oshirib yubordi. Natijada, ikki madaniy dunyo, ya'ni o'zi tug'ilib o'sgan joy va yangi ko'chib kelgan hudud o'rtasida marginal holatni egallagan migrantlar qatlami shakllandi.

XX asrning 20-90-yillari sobiq ittifoq hamda g'arb ilm-fanida migratsiyaning gender xususiyatlarini ilmiy o'rganilishi. Migratsiya xususiyatlari borasida bu davrda amalga oshirilgan dastlabki ilmiy tadqiqotlar G.Strumilina va G.F.Chirkin¹¹¹lar faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, 1960-yillarda V.I.Perevedensev, I.S.Matlin V.V.Onikiyenko, V.A.Popovkin, A.U.Xomra¹²² larning ishlari diqqatga sazovor. Qayd etilgan mualliflar migratsion jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, moliyaviy-bandlik muammolarini o'rgandi. Xususan, A.U.Xomra sobiq ittifoq sharoitidagi mehnat migratsiyasining nazariy va metodik masalalarini o'rgandi. Bunda sotsiologik va iqtisodiy yondashuvlarda shakllangan ilmiy an'analarga tayanib, aholi migratsiyasini tendensiyalarini prognozlash ko'rsatkichlari, metodlari takomillashtirildi.

Bu davrda asosiy e'tibor sobiq ittifoq miqyosidagi ichki ko'chishlarga qaratiladi. Ma'furaviy tus olgan ushbu ilmiy tadqiqotlarda mehnat migratsiyasi

⁹ Парк Р.Э. Разум бродяги: размышления о связи ментального с пространственным передвижением. // Социальные и гуманитарные науки. Сер. 11. Социология. 1997. № 4. - С. 158-162.

¹⁰ Park R.E., Burgess E.W., McKenzie R.D. The city: suggestions for the investigation of human nature in the urban environment. Chicago, 1925.

¹¹ Струмилина С.Г. Перспективы развертывания народного хозяйства СССР на 1926-27/1930-31 гг. — Москва., 1927.; Чиркин Г.Ф. Очерк колонизации Сибири второй половины XIX в. и начала XX века. В сб. Очерк по истории колонизации Севера и Сибири. Пб. 1922. Вып 2.

¹² Переведенцев В.И. Проблемы приживаемости новоселов и методы ее изучения // Изв. СО АН СССР. 1965. №5, вып.2. Матлин И.С. Моделирование размещения населения. — Москва., 1975.; Оникиенко В.В., Поповкин В.А. Комплексное исследование миграционных процессов. — Москва., 1973.; Хомра А.У. Миграция населения: Вопросы теории, методики исследования. Монография. — Киев.: Науково думка, 1979.

sobiq ittifoqning o'zlashtirilmagan hududlarini obod qilish masalariga qaratiladi. Bunda ittifoq tarkibidagi respublikalar aholisi baynalmilallik g'oyalari bilan sug'orilib, Sibir va Uzoq Sharqqa, O'zbekistonda esa Katta Farg'ona kanalini qazish, Mirzacho'l hududlarini o'zlashtirish maqsadida ommaviy tus olgan ichki mehnat migratsiyalari shakllantirildi.

I.B.Britvina majburiy migratsion oqimlar ishtirokchilarining yangi hududga moslashish jarayonining gender muammolarini tadqiq etish jarayonida XX asrni "migratsiyalar erasi" ekanligi haqidagi xuloslarga keldi. XXI asrga kelib esa migratsiya dunyo miqyosidagi ijtimoiy o'zgarishlarning bosh omiliga aylandi¹³. Migrantlarning aksariyatini rivojlanayotgan davlatlar aholisi tashkil qilib boshladi. Xalqaro tashkilotlarning baholashlaricha, ushbu davrda dunyo miqyosida 210 mln nafar migrantning deyarli yarmini, ya'ni 105 mln nafarini xotin-qizlar tashkil etdi¹⁴.

Ilmiy muommoning tavsifi va yechimi. Aynan shu mazmunda o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borgan N.L. Mikidenko, S.P. Storজেভাল O'rta Osiyo mintaqasidan mehnat migratsiyasiga tortilgan xotin-qizlarning adaptatsiyasi masalalarini o'rganar ekan "xalqaro mehnat migratsiyasidagi asosiy tendensiyalardan biri bu yirik megapolislarda migratsion oqimlarning feminlashuvi" ekanligini aniqladi¹⁵. A.A. Ilimbetova migratsiya global darajada feminlashgan jarayonga aylanganligini ta'kidlaydi¹⁶. Bunda asosiy omil sifatida jahon iqtisodiyotidagi tuzilmali o'zgarishlarni ko'rsatadi. Xususan, xizmat ko'rsatish, tekstil sanoati, hordiq va ko'ngil ochar sohalarning rivojlanishi aynan ayollar mehnatiga bo'lgan talabni oshirib yubordi.

Bu davrda migratsion jarayonlarga tortilgan va norasmiy mehnat sohasida band bo'lgan xotin-qizlarga nisbatan tahqirlash, zo'ravonlik, sun'iy sotsial baryerlar va ayollarning yangi muhitga moslashish jarayonidagi ijtimoiy

Bu davrda migratsion jarayonlarga tortilgan va norasmiy mehnat sohasida band bo'lgan xotin-qizlarga nisbatan tahqirlash, zo'ravonlik, sun'iy sotsial baryerlar va ayollarning yangi muhitga moslashish jarayonidagi ijtimoiy muammolar ilmiy tadqiqotlarning dolzarb mavzulariga aylandi.

¹³ Бритвина И.Б. Гендерная детерминация адаптации вынужденных мигрантов: социологический анализ. Автореф. ...дисс. докт. соц. наук. — Екатеринбург, 2006. — С. 3.

¹⁴ Франк А.К., Спехар А. Женская трудовая миграция в контексте глобализации. - Брюссель: Европейская сеть. Женщины в развитии, 2010. — С. 2.

¹⁵ Микиденко Н.Л., Сторожева С.П. Женская трудовая миграция: информационные аспекты адаптации. // Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Политические, социологические и экономические науки. 2016. № 2. — С. 35 — 42.

¹⁶ Илимбетова А.А. Глобальный процесс феминизации миграции. // Век глобализации. Журнал. 2013. №1. — С. 79-91.

muammolar ilmiy tadqiqotlarning dolzarb mavzulariga aylandi. Ayni davrda psixologik tadqiqotlar jadallashdi va xotin-qizlarning muqim yashab turgan joyini o'zgartirish motivatsiyalari alohida o'rganildi. Migratsiya shaxsning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondirish vositasi hamda kishining o'ziga bo'lgan ishonchini sinash usuli sifatida ta'riflandi.

Yakuniy qism. Sotsiologiyada migratsiya ijtimoiy fenomen va ijtimoiy jarayon sifatida alohida o'rganiladi. Ushbu jarayonning shakllanish xususiyatlari va rivojlanish davomiyligi dinamik ko'rsatkichlarda tahlil qilinadi. Sotsiologiya tadqiqotlarda globallashuv jarayoni umumiy fonida kechayotgan yirik ko'lamli ushbu jarayon ulkan oqim sifatida asosiy trendlarda ko'zga tashlanuvchi davlatlar 2 turga ajratiladi. Bular, donor davlatlar, ya'ni migrantlarni yetishtirib beruvchi aksariyat kambag'al davlat bo'lsa, ikkinchisi – qabul qiluvchi “iqtisodiy jozibador” davlatlar bo'lib, ular dunyoning rivojlangan davlatlari zimmasiga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Воробьёва О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики. Аналитический сборник. 2003. – № 9 (202).
2. Парсонс Т. Система современных обществ. /Пер, с англ. Л.А. Седова и А.Д. Ковалева. Под ред. М.С. Ковалевой. – Москва: Аспект Пресс, 1998.
3. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии / Пер. с фр. и послесловие А.Б. Гофмана. – Москва: Наука, 1990.
4. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура. – Москва: Хранитель, 2006.
5. Томас У., Знанецкий Ф. Польский крестьянин в Европе и Америке. // Thomas W., Znaniecki F. The Polish peasant in Europe and America. N.Y., 1958.
6. Блинова М.С. Миграция населения: подход социологов Чикагской школы. // Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология. 2011. №4. – 173 б.
7. Парк Р.Э. Разум бродяги: размышления о связи ментального с пространственным передвижением. // Социальные и гуманитарные науки. Сер. 11. Социология. 1997. № 4.
8. Park R.E., Burgess E.W., McKenzie R.D. The city: suggestions for the investigation of human nature in the urban environment. Chicago, 1925.
9. Струмилина С.Г. Перспективы развертывания народного хозяйства СССР на 1926-27/1930-31 гг.. – Москва, 1927.; Чиркин Г.Ф. Очерк колонизации Сибири второй половины XIX в. и начала XX века. В сб. Очерк по истории колонизации Севера и Сибири. Пб. 1922. Вып 2.
10. Переведенцев В.И. Проблемы приживаемости новоселов и методы ее изучения // Изв. СО АН СССР. 1965. №5, вып.2. Матлин И.С. Моделирование размещения населения. – Москва, 1975.; Оникиенко В.В., Поповкин В.А. Комплексное исследование миграционных процессов. – Москва, 1973; Хомра А.У. Миграция населения: вопросы теории, методики исследования: монография. – Киев: Науково думка, 1979.

11. Бритвина И.Б. Гендерная детерминация адаптации вынужденных мигрантов: социологический анализ. Автореф. ...дисс. докт. социол. наук. – Екатеринбург, 2006.
12. Франк А.К., Спехар А. Женская трудовая миграция в контексте глобализации. – Брюссель: Европейская сеть. Женщины в развитии, 2010.
13. Микиденко Н. Л., Сторожева С. П. Женская трудовая миграция: информационные аспекты адаптации // Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Политические, социологические и экономические науки. 2016. № 2.
14. Илимбетова А.А. Глобальный процесс феминизации миграции.. // Век глобализации. Журнал. 2013. №1. – С. 79-91.
15. Rahmanova G., Davlatova K., Shahabitdinova S., Odiljonova A., Khayitova S. & Akhunov M. (2025). Migration and the elderly: Analyzing the social challenges of families left behind. *Edelweiss Applied Science and Technology*, 9(1), 713–718. <https://doi.org/10.55214/25768484.v9i1.4235>
16. Rahmanova, G. ., Davlatova, K. ., Egamberdiyeva, N. ., Khusanova, K. ., Abduvaliyev, M. ., & Maksudova, H. . (2025). Patriotism and national identity in Uzbek female students abroad. *Edelweiss Applied Science and Technology*, 9(1), 737–748. <https://doi.org/10.55214/25768484.v9i1.4238>

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U., E.Sultonov**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” МЧЖ bosmaхонасида chop etildi.

Тошкент, Олмазор тумани, Чимбой кўчаси, 8-уй.